

## “ALPOMISH” VA “BEOWULF” DOSTONLARINING O'XSHASH VA FARQLI JIHLARI

*Olimjonova To'lganoy Farhodjon qizi*

*Farg'ona davlat universiteti talabasi*

*Qosimova Feruza Xursanali qizi*

*Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada adabiyotning uzoq tarixga ega ikki turli xalqlarga tegishli dostonlari qiyoslangan holda tahlil qilinadi. Ularning farqli hamda o'xshash tomonlari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** doston, xalq og'zaki ijodi, she'riy shakl, qahramonlik dostoni, epik doston, mistika, madaniyatlararo muloqot, adabiyot

**Kirish.** Avvalambor, doston nimaligiga to'xtaladigan bo'lsak, adabiyotda u liro-epik janr va shu janrda yozilgan asarlarni o'z ichiga oladi. Janr o'zbek ham ingliz folklor va mumtoz adabiyotida keng tarqalgan hamda uzoq tarixga ega. Ancha qadimiy bo'lishiga qaramasdan o'quvchilar orasida keng tarqalgan janr namunalari juda ko'p. Dostonlar mavzularida, folklor yoki muallif tomonidan yozilgan bo'lmasin, har doim jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, ahloqiy muammolari, xalqning orzu-umidlari ko'tarilgan. Janr namunalari, asosan, vatanparvarlik, qahramonlik, insonparvarlik, mehr-muhabbat, do'stlik, sadoqat, mehnatsevarlik kabi g'oyalar ilgari suriladi. Dostonlarning ilk namunalari Yunonistonda paydo bo'lgan hamda ularda afsonaviy qahramonlarning jasoratlari kuylangan. Yorqin misol sifatida Homerning “Illiada” va “Odissey” asarlarini keltirish mumkin. Bundan tashqari, Dantening “Ilohiy komediya”, Firdavsiyning “Shohnoma”lari ham eng mashxur doston namunalari hisoblanadi. Dostonlar mavzu va mohiyatiga ko'ra qahramonlik, sarguzasht-detektiv, ishqiy-romantik, jangnoma, tarixiy-memuar, falsafiy, tarixiy-allegorik, didaktik turlarga bo'linadi.

Ushbu maqolada yoritilayotgan bu ikki doston, “Alpomish” va “Beowulf”, esa qahramonlik dostonlari hisoblanadi. Ikkisi ham o'z o'quvchilariga ega, mashxur va ko'p yillik tarixga ega dostonidir. Quyida ushbu dostonlarning o'xshash hamda farqli jihatlari ko'rib chiqiladi.

**Metodologiya.** Yigirma birinchi asrda, yuqori texnologiyalar asrida, mifologiya yana adabiyotning asosiy mavzulari sahnasidan tushmadi. Ming yillar oldin yozilgan dostonlar va boshqa mistik asarlar hali ham o'qilmoqda va bizning zamonaviy axborot-texnologik asrimizda ham mistika janridagi yangi yangi asarlar yozilmoqda<sup>1</sup>. Ularni

<sup>1</sup> “Positive and Negative Features of Mythological Images in the Epics “Beowulf” and “Alpomish””

o'rganish, turli tomonlardan qiyoslash va taqqoslash davom etmoqda va bu nafaqat adabiyotshunoslik rivojiga, balki, madaniyatlararo aloqalarni, rivojlantirishga ham katta hissa qo'shib kelmoqda. Mavzuda keltirilgan ikki turli xalq va madaniyat mistik dostonini har xil jihatlardan qiyoslab, solishtirib muhokama qilish ham bizga bu ikki xalq adabiyoti va madaniyati o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni ko'rishga yordam beradi.

**Muhokama va natijalar.** “Alpomish” o'zbek tilida yozilgan ikki katta qismdan iborat epik doston. Voqealari qadim Qo'ng'iroq va Qarluq yurtlarida bo'lib o'tadi. Asarning har xil baxshilar tomonidan kuylangan variantlari bor. Dostonda o'zbek an'ana va urf-odatlarini ko'plab sahnalarda aks ettirilgan. “Beowulf” anglo-sakson tilida, german an'analari muvofiq yozilgan ilk doston bo'lib, 3182 qatorni o'z ichiga oladi. Asar voqealari, asosan, Xrotgard qirolligida sodir bo'ladi. Asar qadimgi ingliz tilidan zamonaviy ingliz tiliga, rus va boshqa tillarga tarjima qilingan, ammo, afsuski, o'zbek tilidagi tarjimasi hali mavjud emas. Qadim tarixga ega bu ikkala epik asarlarning o'ziga xos xususiyatlari bor, ammo ularda ko'plab o'xshashliklar ham mavjud.

O'xshashliklarga to'xtalganda, Alpomish va Beowulf ikkalasi ham o'z davrining eng jasoratli qahramonlari sifatida tasvirlangan. Ular o'z xalqining muqaddas g'oyalarini himoya qilish uchun hayotlarini xatarga qo'yishga tayyor bo'lgan. Ikki epik doston ham jangchilik madaniyati asosida yaratilgan. Ularda jangchilik sharafli va qadrlangan faoliyat sifatida tasvirlangan. “Alpomish” va “Beowulf”da yaxshi va yomon o'rasidagi kurash ham mavjud<sup>2</sup>. Bu ikkala qahramon ham o'z xalqini yomonlikdan himoya qilish uchun kurashadi. Buni “Beowulf”dagi ushbu Beowulfning kuchi va qahramonliklari haqida aytilayotgan misralarda ko'rish mumkin:

“The strength of my body.

Themselves they beheld me

When I came from the contest, when covered with gore

Foes I escaped from, where five I had bound,

The giant-race wasted, in the waters destroying

The nickers by night, bore numberless sorrows<sup>3</sup>...”

Yoki “Alpomish”dagi misralarni ham ko'rish mumkin:

“Duchor bo'ldi Qorajonday polvonga,

Ushlagandan buni otdi osmonga.

Tag'i ham bir qalmoq keldi maydonga<sup>4</sup>...”

Dostonlardagi syujet va qahramonlar o'xshashliklarini ham ko'rib chiqish mumkin. Masalan, har ikki doston bosh qahramonlari, Alpomish va Beowulf, asosiy

<sup>2</sup> [“Positive and Negative Features of Mythological Images in the Epics “Beowulf” and “Alpomish””](#)

<sup>3</sup> <https://www.neshaminy.org/site/handlers/filedownload.ashx?moduleinstanceid=6499&dataid=31512&FileName=beowulf%20text.pdf>

<sup>4</sup> «ШАРК» НАШРИЁТ-МАТБАА КОНЦЕРНИ БОШТАХРИРИЯТИ НҲТ ОШКЕНТ —1998

dushmanlardan tashqari, ularning yovuz hamda qasoskor jodugar onalari bilan ham olishishlariga to'g'ri keladi. Sharafli safarlari davomida ikkisiga ham sodiq do'stlar, Qorajon Alpomishga, Beowulfga Viglaf, hamrohlik qiladi.

Har ikki asarda ham davlatchilik boshqaruvining haqida ilk qadimiy elementlarini ko'rish mumkin. Ya'ni Alpomish ham, Beowulf ham davlat boshqaruvchilarining o'g'illari hisoblanadi. Har ikki qahramon ham davlat boshqaruvi hamda botirlik otalari tomonidan o'rgatiladi. "Alpomish"dagi ushbu jumladan ko'rish mumkin: "Biz akangdan kelgan zakotchi bo'lamiz, bugun bizlar sening molingni zakot qilamiz. Zakot qilinglar, bersa, zakotini olib kelinglar, degan<sup>5</sup>".

Bu ikki dostonlarning farqlari ham talaygina. Masalan, "Beowulf" dostoni muallif tomonidan yozilgan va bizga yozma holda, syujet va tildagi o'zgarishlarsiz yetib kelgan, ammo muallif nomi hali topilmagani sababli, shoirni "Beowulf poet" ("Beowulf shoiri) deb nomlashadi. Bu dostonda mifologik tasavvurlar ko'proq mavjud. U yerda qahramon o'z dushmanlariga qarshi kurashadi, ularni yengib, o'z xalqini himoya qiladi. "Alpomish" esa o'zbek xalq og'zaki ijodining yorqin namunasi bo'lib, u yigirmanchi asr o'rtalariga kelibgina shoir Hamid Olimjon tomonidan baxshi Fozil Yo'ldosh tilidan yozib olingan. Doston folklor namunasi bo'lganligi sababli qadim yillardan beri og'zaki tarzda, ko'plab o'zgarishlarga uchragan holda, har xil variantlarda yana-da sayqallanib hozirgi davrga yetib kelgan. Bundan tashqari, asarning ba'zi qismlari nasriy, ba'zi qismlari she'riy shaklda. Dostonda bosh qahramon o'z hayot yo'lidagi sinovlarni yengib chiqadi va o'z maqsadlariga erishadi. Beowulfda esa qahramonlik jasorat va quvvat bilan bog'liq, chunki Beowulf o'z dushmanlarini yengish uchun o'z jasoratini va quvvatini ishlatadi. Alpomishda esa, qahramonlik sabr, ishonch va sadoqat tuyg'ulari bilan bog'liq. Alpomish o'z maqsadlariga erishish uchun sabrli bo'lishni va qiyinchiliklarni yengib chiqishni o'rganadi. Beowulf, jangchilik va qahramonlik haqida hikoya qiladi, Alpomish esa, odamning o'z ichki quvvatini maqsadlariga erishish uchun kurashishini tasvirlaydi.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni keltirish mumkinki, bu ikki mutlaqo turli madaniyat dostonlarida bir qator o'xshashliklar va farqli jihatlar mavjud. Ikkisi ham qahramonlik dostoni ekanligi, ikkisida ham sadoqat, do'stlik, mardlik tuyg'ulari ulug'lanishi, ikkisi ham jangchilik mahorati haqida kuylashi o'xshash tomonlari bo'lsa, farqli jihatlariga shakli, yozilish uslubi, syujetidagi katta o'zgachaliklar, birisi folklor, birisi muallif tomonidan yozilganligi va boshqalar kiradi. Eng muhimi, ikkisi ham o'z xalqining nodir kashfiyoti, dostonchilik boshlanishi poydevoridir va hozirgacha o'quvchilar tomonidan sevib qabul qilinadi.

<sup>5</sup> «Ш А Р К » Н А Ш Р И Ё Т - М А Т Ъ А К О Н Ц Е Р Н И Б О Ш Т А Х Р И Р И Я Т И Н Ф Т О Ш К Е Н Т — 1998

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. [“Positive and Negative Features of Mythological Images in the Epics “Beowulf” and “Alpomish””](#)
2. [“Similarities and Differences between The Iliad and Beowulf”](#)
3. «Ш А Р К » Н А Ш Р И ЁТ-М А ТБ А А К О Н Ц Е Р Н И Б О Ш Т А Х Р И Р И Я Т И Н f Т О Ш К Е Н Т —1998
4. <https://www.neshaminy.org/site/handlers/filedownload.ashx?moduleinstanceid=6499&dataid=31512&FileName=beowulf%20text.pdf>